

BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO HUQUQIY MEXANIZMLARI

Zayniddinova Shaxzodaxon Faxriddin qizi

Bola huquqlari – har bir bola tug'ilganidan boshlab egallab keladigan ajralmas huquqlar majmui bo'lib, ular hayot, rivojlanish, xavfsizlik, tahqirdan himoyalash va ta'lim olish kabi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Bola huquqlarini xalqaro miqyosda mustahkamlovchi eng muhim hujjatlardan biri bu – 1989 yilda BMT tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyadir.

Ushbu konvensiya davlatlarga bolalarni barcha shakllardagi zo'ravonlik, ekspluatatsiya va e'tiborsizlikdan himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Ammo statistikaga yuzlanadigan bo'lsak, afsuski hali ham bolalar tajovuz qurboni bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) va UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab 1 milliardga yaqin bola – ya'ni deyarli har ikkinchi bola – jismoniy, jinsiy yoki ruhiy zo'ravonlikning kamida bir turiga duch keladi.

Ayniqsa, oilaviy muhitda, maktabda yoki onlayn platformalarda bolalar turli shakllardagi zo'ravonlik va e'tiborsizlikka uchramoqda. Har yili taxminan 40 ming bola zo'ravonlik natijasida hayotdan ko'z yumadi. Zo'ravonlikning eng keng tarqalgan shakllari – uy sharoitida kaltaklash, jinsiy tajovuz, ekspluatatsiya, majburiy mehnatga jalb qilish va psixologik tazyiqlardir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, zo'ravonlik darajasi ayrim mintaqalarda boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori. Masalan, Afrika va Janubiy Osiyo mintaqalarida bolalarga nisbatan jismoniy jazolash odatiy holatga aylangan. Nigeriyada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 18 yoshgacha bo'lgan har 4 boladan 3 nafari hayotida kamida bir marta zo'ravonlik yoki tajovuzga uchragan.

Hindiston, Bangladesh, Pokiston kabi mamlakatlarda esa bola mehnatidan ekspluatatsiya qilish holatlari keng tarqalgan bo'lib, millionlab bolalar o'qish o'rniga majburiy ishlab chiqarish tarmoqlarida ishlatilmoqda.

Shuningdek, Lotin Amerikasida, xususan, Braziliya va Meksikada bolalarga nisbatan uyda va jamiyatda tajovuz holatlari yuqori darajada. Bu mamlakatlarda ko'plab bolalar uy-joysiz, hujjatsiz yoki ijtimoiy himoyasiz qolganligi sababli zo'ravonlikning doimiy qurboniga aylanmoqda. Rivojlangan davlatlarda ham, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliyada oilaviy zo'ravonlik, bolalarni onlayn platformalarda kiberzo'ravonlikka uchrashi holatlari ortib bormoqda.

AQShda har yili o'rtacha 600 mingdan ortiq bola zo'ravonlik bo'yicha ijtimoiy xizmatlar tomonidan qayd etiladi. Bunday ko'lamdagi muammolar, shuningdek, bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zo'ravonlikdan aziyat chekkan bolalarda stress, depressiya, o'zini past baholash, o'qishdan chetlashish va jinoyatga moyillik kuzatiladi.

Shu sababli bola huquqlarini mustahkamlash, huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masalalardan biridir.

Endi bola huquqlarining himoyasining xalqaro huquqiy mexanizmini ko'rib chiqamiz. BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (1989) – 1989-yilda qabul qilingan BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi bolani mustaqil shaxs sifatida tan olib, unga nisbatan alohida huquqiy himoyani ta'minlaydi. Konvensiyada bola deb 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs e'tirof etiladi va unga to'rt asosiy guruhdagi huquqlar beriladi: hayot va rivojlanish huquqlari, himoya huquqlari, ishtirok etish huquqlari va asosiy erkinliklar. Hayot va rivojlanish huquqlari doirasida bola sog'lom o'sishi, tibbiy xizmatdan foydalanish, ta'lim olish, ijtimoiy farovonlikka ega bo'lish huquqlariga ega.

Himoya huquqlari esa bolani zo'ravonlik, ekspluatatsiya, beparvolik va giyohvandlikdan himoya qilishni nazarda tutadi. Ishtirok etish huquqlari bolaning o'z fikrini erkin bildirish, qarorlarga ta'sir etish va axborotga erkin kirish huquqini o'z ichiga oladi. Asosiy erkinliklar esa vijdon, din, so'z va shaxsiy hayot daxlsizligi huquqlarini o'z ichiga oladi. Konvensiya bolalar manfaatlarini ustuvor deb belgilaydi va har bir davlatdan bu huquqlarni qonuniy va amaliy jihatdan ta'minlashni talab qiladi.

Konvensiyaga quyidagi uchta fakultativ protokol ham qo'shilgan:

Bolalarni qurolli mojarolarga jalb etishga qarshi protokol;

Bolalar savdosi, bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi va pornografiyasi to'g'risidagi protokol;

Shikoyat berish tartibini nazarda tutuvchi protokol – bu orqali bola yoki uning vakili BMT qo'mitasiga shikoyat kiritishi mumkin.

Bola huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlardan eng samarali ishlovchilari , bular: Bola huquqlari bo'yicha qo'mita hamda UNICEF hisoblanadi. Quyida ularning bajaradigan ishlarini ko'rib chiqamiz.

Bola huquqlari qo'mitasi — Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy organlaridan biri bo'lib, u BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishini nazorat qilish uchun 1991-yilda tashkil etilgan. Qo'mita 18 nafar mustaqil ekspertdan iborat bo'lib, ular konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlarning hisobotlarini ko'rib chiqadi va ularga tavsiyalar beradi. Qo'mitaning asosiy vazifalaridan biri — a'zo davlatlar tomonidan har to'rt yilda taqdim etiladigan milliy hisobotlarni o'rganishdir.

Bu hisobotlar orqali har bir davlat bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha ko'rgan chora-tadbirlari, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar haqida ma'lumot beradi. Qo'mita ushbu hisobotlar asosida yakuniy xulosalar ("concluding observations") tayyorlaydi va davlatlarga bola huquqlarini yanada samarali himoya qilish uchun tavsiyalar beradi. Bundan tashqari, qo'mita shikoyatlar mexanizmini ham yuritadi. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga biriktirilgan Uchinchi fakultativ

protokolga muvofiq, ayrim shartlarni bajargan davlatlarda yashovchi bolalar yoki ularning vakillari qo'mitaga bevosita murojaat qilish huquqiga ega.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi — UNICEF (United Nations International Children's Emergency Fund) esa 1946-yilda tashkil etilgan bo'lib, dastlab Ikkinchi jahon urushi oqibatida zarar ko'rgan bolalarga yordam ko'rsatish maqsadini ko'zlagan. Bugungi kunda UNICEF dunyo bo'ylab bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning sog'lom, xavfsiz va baxtli hayot kechirishlari uchun keng huquqlarni amalga oshirish va ilgari surishga xizmat qiladi. Tashkilot sog'liqni saqlash, ta'lim, toza ichimlik suvi, sanitariya, bolalarni ekspluatatsiyadan himoya qilish kabi ko'plab yo'nalishlarda faoliyat yuritadi. UNICEF kambag'allikda yashovchi yoki mojarolardan aziyat chekkan bolalar hayotini saqlab qolish, ularning rivojlanishini ta'minlash va teng imkoniyatlar yaratishga alohida urg'u beradi. Tashkilot emlash kampaniyalari, o'quv dasturlari, oziq-ovqat va tibbiy yordam yetkazib berish orqali millionlab bolalarga yordam ko'rsatib kelmoqda. Bundan tashqari, UNICEF hukumatlar bilan hamkorlikda milliy qonunchilikni bola huquqlariga moslashtirish, siyosiy islohotlar qilish va fuqarolik jamiyatini bola manfaatlarini himoya qilishga jalb etish yo'nalishlarida ham faol ishlaydi. U jamoatchilikni xabardor qilish, tadqiqotlar o'tkazish va global tashabbuslarni ilgari surish orqali ham xalqaro hamjamiyatda muhim o'rin tutadi.

Qo'mita, shuningdek, tematik umumiy sharhlar ("General Comments") chiqarib, bola huquqlari borasidagi standartlarni aniqlashtirib boradi. U xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, davlatlar va nodavlat tashkilotlari o'rtasida muloqotni kuchaytirish orqali bolalar manfaatlarini global darajada ilgari suradi.

Bola huquqlari mintaqaviy darajada ham himoya qilinadi, jumladan; Yevropa Kengashining "Yevropada bolalarning himoyasi haqida" (1996) – gi Konvensiyasi Afrika bola huquqlari va farovonligi xartiyasi (1990), Amerika bola huquqlari deklaratsiyasi (OAS) mavjud bo'lib, ularning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz:

1996-yilda qabul qilingan Yevropa Kengashining "Bolalarning himoyasi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi" bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim xalqaro hujjat hisoblanadi.

Ushbu konvensiya bolalarning ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy farovonligini ta'minlash, ularni suiiste'mol, beparvolik, zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan himoya qilishni nazarda tutadi. Konvensiyada bola shaxs sifatida tan olinadi va uning fikri, ehtiyojlari muhim deb e'tirof etiladi.

Shuningdek, hujjat ota-onalar, davlat organlari va sudlar tomonidan bolalarga nisbatan qabul qilinadigan har qanday qarorda bolaning eng yaxshi manfaatlarini inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Konvensiya bolalarga oid ishlarni yuritishda ularning ishtirok etish huquqini kafolatlaydi, ayniqsa oilaviy nizolar, vasiylik, asrab olish va zo'ravonlik holatlari bo'yicha. Hujjat Yevropa mamlakatlarini bolalarga nisbatan maxsus himoya choralari

ishlab chiqish va ularni xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirishga undaydi. Shu orqali u bolalar uchun xavfsiz va sog'lom muhit yaratishga xizmat qiladi.

Afrika bola huquqlari va farovonligi xartiyasi (African Charter on the Rights and Welfare of the Child – ACRWC) 1990-yilda Afrika Ittifoqi tomonidan qabul qilingan bo'lib, 1999-yilda kuchga kirgan. Ushbu xartiya BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga o'xshash bo'lsa-da, u Afrika kontekstiga xos muammolar va qadriyatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Xartiyada bolani 18 yoshgacha bo'lgan har qanday inson deb belgilab, ularning yashash, sog'liqni saqlash, ta'lim olish, ekspluatatsiyadan himoya, shaxsiy fikr bildirish va o'z madaniyati, tilini saqlash kabi asosiy huquqlari kafolatlanadi. Ayniqsa, xartiya bolalarning ijtimoiy himoyasiz guruhlari – qiz bolalar, bolalar mehnati, bolalarning urushdagi ishtiroki va an'anaviy zararli urf-odatlar (masalan, bolalarni erta nikohlash)ga qarshi kurashni alohida nazarda tutadi. Shuningdek, ushbu hujjat orqali har bir davlat bolalarga oid siyosat va qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishi, milliy darajada himoya mexanizmlari yaratishi talab qilinadi. 2001-yilda Afrika bola huquqlari qo'mitasi tuzilib, u xartiyaning ijrosini monitoring qiladi. ACRWC – Afrikada bolalar farovonligi uchun muhim huquqiy asos bo'lib, qit'ada bolalarning kelajagini himoya qilishga qaratilgan muhim qadamdir.

Amerika bola huquqlari deklaratsiyasi (Declaration of the Rights of the Child of the Americas) Amerika davlatlari tashkiloti (OAS – Organization of American States) tomonidan 1959-yilda qabul qilingan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu deklaratsiya bolalarning alohida ehtiyoj va himoya talab qiluvchi guruh ekanligini e'tirof etgan holda, ularning huquqlarini xalqaro miqyosda mustahkamlashga qaratilgan. Deklaratsiyada bola – voyaga yetmagan, ya'ni 18 yoshga to'lmagan shaxs sifatida aniqlanadi. Unda bolalarning quyidagi asosiy huquqlari ifoda etilgan: hayot va sog'lom rivojlanish huquqi, ism va fuqarolik huquqi, oilada yashash va tarbiyalanish huquqi, ta'lim olish, zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan himoyalaniish, erkin fikr bildirish va eshitilish huquqi. Bundan tashqari, bola jismoniy va ma'naviy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun zarur ijtimoiy va huquqiy muhitda yashashi lozimligi ta'kidlangan. Deklaratsiyaning o'ziga xos jihati – unda bola faqat huquq sub'ekti sifatida emas, balki jamiyatning kelajagi sifatida qaraladi. Shu bois, ota-onalar, davlat va butun jamiyat bolaning to'laqonli rivojlanishi uchun mas'ul deb belgilanadi. Amerika deklaratsiyasi bola huquqlari bo'yicha keyinchalik yaratilgan xalqaro hujjatlarga asos bo'lib xizmat qilgan. U BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasidan oldin qabul qilingan bo'lib, Lotin Amerikasi va boshqa Amerika qit'asidagi davlatlarda bolalar huquqini tan olish va himoya qilishda muhim qadam hisoblanadi.

Yurtimizda ham, bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirildi, masalan: 2022 yil 31 avgust – 1 sentyabr kunlari BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasining 91-sessiyasida O'zbekistonning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bajarilishi yuzasidan Beshinchi milliy ma'ruzasi ko'rib chiqildi. Qo'mitaning yakuniy mulohazalarida ko'rsatib o'tilgan tavsiyalarni amalga oshirish

yuzasidan Milliy harakatlar rejasi loyihasi ishlab chiqilib, Inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlar bajarilishini ta'minlash bo'yicha Parlament komissiyasiga tasdiqlash uchun taqdim etildi;

2023/2024 o'quv yilidan boshlab O'zbekistonda professional va oliy ta'lim tizimida "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari" va "Bola huquqlari" bo'yicha o'quv kurslari joriy qilindi. Bu ta'lim dasturlari orqali bolalar, ayollar va imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlari bo'yicha bilimlar oshirilmoqda. Shuningdek, inson huquqlari bo'yicha elektron platforma ishga tushirildi.

O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qilish maqsadida Bola huquqlari bo'yicha vakil instituti joriy etildi. Ushbu institut BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasi va bola huquqlari masalalari bo'yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi. Shuningdek, aholi o'rtasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlar masalalari bo'yicha huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga ko'maklashish kabi ko'pgina muhim vazifalarni amalga oshiradi

2023 yilda O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasidan kelib tushgan jami 6 ta individual xabarnomani ko'rib chiqdi. Ulardan to'rttasi yuzasidan murojaatlarni qabul qilish mumkin emasligi, qolgan ikkita xabarnomani mazmunan ko'rib chiqish haqida javoblar tayyorlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha to'rtinchi milliy ma'ruzasi 2023 yil 8-10 noyabr kunlari ko'rib chiqildi.

Ammo, shu bilan birgalikda xalqaro hamjamiyatda bola huquqlari bilan bog'liq muammolar ham talaygina. Dunyodagi millionlab bolalar ta'lim, sog'liqni saqlash, himoya va ishtirok etish huquqlaridan to'laqonli foydalana olmayapti. Ayniqsa, qurolli mojarolar, migratsiya, qashshoqlik, zo'ravonlik va bolalar mehnatidan foydalanish kabi omillar bola huquqlarini jiddiy buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Suriyada, G'azo sektorida, Afg'onistonda va boshqa mojaroli hududlarda bolalar o'qotar qurolli to'qnashuvlarga guvoh bo'lmoqda, hatto ularning bevosita qurboni bo'lish hollari ham uchramoqda. Afrikada esa millionlab bolalar maktabga bora olmayapti yoki erta yoshda turmush qurishga majburlanmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi xavf-xatarlar ham bolalarning axborot xavfsizligi huquqini tahdid ostiga qo'yimoqda. Bu borada, xalqaro bola huquqlari bo'yicha qo'mita ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan choralar ko'rmoqda.

Bola huquqlari himoyasi xususida so'z yuritar ekanmiz, bolalarga g'amxo'rlik qilish borasidagi turli yondashuvlarga to'xtalishimiz o'rinli bo'ladi, masalan, Yevropa huquq tizimi va Amerika mintaqasidagi davlatlarda bolalarga boshqacha munosabatda bo'linsa, Osiyo mamlakatlari umuman boshqacha yondashuvda o'z farzandlarini tarbiyalashadi. Bu ijtimoiy tarmoqlarda "Asian parents" deya mem qilinadi, va ba'zi g'arb huquqshunoslari tomonidan, Osiyoda bolalar huquqlari ta'minlanmaydi, deya tanqid ostiga olinadi, darhaqiqat, aksariyat osiyo mamlakatlarining qonunlari bolaga "uyiga xohlagan vaqtida kirish", "xohlagan mehmonini taklif qilish", "xohlagan diniga

e'tiqod qilish" kabi huquqlarni bermaydi, osiyo mamlakatlarida tarbiya "metod"i sifatida so'z erkinligining, yoki harakatlanish erkinligining ham cheklanishi sir emas, ammo, shuni unutmash kerakki, bola huquqlarini alohida ajratishimiz, himoya qilishimizning asosiy sababi, bola - hali to'liq rivojlanmagan shaxs, uni to'g'ri rivojlantirish uchun esa, turli mamlakatlar o'z urf-odatlaridan kelib chiqib yondashishi, ya'ni, madaniy relyativizm, huquq buzilishi hisoblanmaydi, bundan tashqari, aynan "huquqlari buzilgan", "bolaga shafqatsiz munosabatda bo'luvchi mamlakatlar" hisoblangan Xitoy va Yaponiya hozirda dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan hisoblanadi, dunyoning eng aqlli odamlari esa, yaponiyaliklar deya tan olingan.

Xulosa, Bolaning huquqiy maqomi va uni to'laqonli himoya qilish masalasi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, axloqiy va siyosiy jihatdan ham dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida bolalarning huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro standartlarga mos qonunchilik bazasi shakllangan bo'lib, ularning amaliyotda to'liq tatbiq etilishi orqali bola manfaatlarini ustuvorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Xususan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi qoidalari asosida qabul qilingan milliy qonunlar va institutlar tizimi bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini, ta'lim olish hamda sog'lom rivojlanish imkoniyatlarini kafolatlaydi.

Shunga qaramay, bola huquqlarining buzilishi holatlari hanuz uchrab turadi va bu esa ushbu yo'nalishda huquqni qo'llash amaliyotini kuchaytirish, huquqiy targ'ibot ishlarini kengaytirish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Davlat, jamiyat va oilaning uzviy hamkorligi asosida bola huquqlarining samarali himoyasini ta'minlash — farovon kelajakning muhim garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, 1989 yil.
2. Bola huquqlari bo'yicha uchta fakultativ protokol (Qurolli mojarolar, Jinsiy ekspluatatsiya, Shikoyat tartibi), BMT.
3. WHO & UNICEF. Global status report on preventing violence against children, 2020.
4. UNICEF (United Nations Children's Fund). Annual Report, 2023.
5. Committee on the Rights of the Child. Concluding Observations on States' Reports.
6. European Convention on the Exercise of Children's Rights, Council of Europe, 1996.
7. African Charter on the Rights and Welfare of the Child, African Union, 1990.
8. Declaration of the Rights of the Child of the Americas, Organization of American States, 1959.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) rasmiy vebsayti – www.ombudsman.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023/2024 o'quv yili uchun ta'limga oid qaror va farmoyishlari.
11. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy portali – www.minjust.uz
12. BMT Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari boshqarmasi: Children's Rights and the United Nations.